

**TALABALARNING INGLIZ TILIDA NUTQ KOMPETENSIYASINI VEB-  
RESURLAR VOSITASI YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**N.Sh.Sanoqulova.**

*Geologiya fanlari universiteti,  
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi  
ingliz tili o'qituvchisi.*

**Annotatsiya**

Bu maqola bugungi kunda xorijiy tillarning har bir sohada muhimligi hamda ingliz tili o'qitishda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish haqida tilshunoslar nazariy qarashlari keltirilgan va xorijiy tilni o'qitishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalari muhim o'rni haqida ma'lumot berilgan. Og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kerakligi hamda innovatsion ta'lim metodlari va usullari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar**

og'zaki nutq, ko'nikma, nutq ko'nikmasi, nutq kompetensiyasi, interaktiv platformalar va chatbotlar, audio va video resurslar, til almashinuvi va onlayn hamjamiyatlar, gamifikatsiyalangan resurslar va mashqlar, VEB-resurslar vositalari.

**Annotation**

This article presents the theoretical views of linguists on the importance of foreign languages in every field today and the development of oral competence in English language teaching, and provides information on the important role of speaking and listening skills in teaching a foreign language. The article deals with the need to use innovative educational technologies in the development of oral competence, as well as innovative teaching methods and techniques.

**Keywords**

oral speech, skills, speaking skills, speaking competence, interactive platforms and chatbots, audio and video resources, language exchange and online communities, gamified resources and exercises, VEB-resource tools.

**Аннотация**

В данной статье представлены теоретические взгляды лингвистов на важность иностранных языков в каждой современной сфере и развитие устной речи в преподавании английского языка, а также информация о важной роли навыков говорения и аудирования в обучении иностранному языку. Обосновывается необходимость использования инновационных образовательных технологий для развития устной речи, а также инновационных методов и методик обучения.

### Ключевые слова

устная речь, навыки, навыки говорения, компетенция говорения, интерактивные платформы и чат-боты, аудио- и видеоресурсы, языковой обмен и онлайн-сообщества, игровые ресурсы и упражнения, инструменты ВЕБ-ресурсов.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvlambor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir.» – deb alohida ta'kidlaganlar.<sup>14</sup>

### Asosiy qism

Ma'lumki, og'zaki nutq – nutq faoliyatining bir turi bo'lib, tovushlar orqali yuzaga keluvchi va ushbu oqimni tushunish (tinglab tushunish) va xuddi shu tarzda tovushlar yordamida o'z fikrlarini bayon qilish (gapirish) ko'nikmasini o'z ichiga oladi. Og'zaki nutq doimiy ravishda nutq vaziyati orqali yuzaga chiqadi. Ilmiy adabiyotlarda og'zaki nutq ko'nikmasi va malakasi tushunchalari mavjud.

Xorijiy og'zaki nutqni o'qitish tizimining poydevori sifatida A.A.Leontev ushbu ikki tushunchalar ta'rifiga alohida to'xtalib o'tadi: ko'nikma – nutq operatsiyalarini, malaka – nutq faoliyatini amalga oshirish bilan belgilanadi, bunda nutq faoliyati – o'zida muayyan vaziyatdan kelib chiqqan maqsadni qamrab olgan muloqotning minimal birligi demakdir.

Demak, nutq ko'nikmasi deganda, avtomatlashtirilgan operatsiyalarni muayyan darajada amalga oshirish qobiliyatini tushunamiz.

Ko'nikma – takrorlash orqali mukammal darajaga yetkazilgan bilimlar majmuasi. Bunda har qanday faoliyat usuli, mustaqil harakat qila olish bosqichidan o'tgan holda doimiy takrorlashlar natijasida ko'nikmaga aylanadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini avtomatlashgan holda boshqarish ushbu jarayonda yuqori sifat darajasida yetgandagina yuzaga keladi hamda mazkur pog'onada nutq faoliyati turlari, ya'ni gapirish va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish imkoni yaratiladi. Ko'nikma psixolingvistik fenomen sifatida ongli va avtomatlashganlik, o'zgaruvchanlik va chidamlilik, takrorlash va aniqlik kabilar bilan xarakterlanadi.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 5117-sonli qarori.



Ogʻzaki nutq koʻnikmalari tushunchasi doirasida biz gapirish – nutqning produktiv faoliyat turini, shuningdek, muloqotning ikkinchi ajralmas retseptiv qismi boʻlgan tinglab tushunish koʻnikmalarining mujassamligini tushunamiz. Zero gapirish koʻnikmasi tinglab tushunish koʻnikmasi bilan uygʻunlikda ogʻzaki nutq muloqot jarayonini yuzaga keltiradi. Ogʻzaki nutq asosida gapirish va tinglab tushunish koʻnikmalari yotadi.

Koʻnikma – mukammallik, xatosiz bajarish darajasida yetkazilgan operatsiya turidir.

Nutq koʻnikmalari – nutq faoliyatini amalga oshiradi, u esa oʻz oʻrnida nutq operatsiyalari va nutqiy harakatlarni oʻz ichiga oladi. Nutq koʻnikmasining asosiy xususiyatlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- 1) avtomatlashganlik – faoliyatning muayyan tezlikda amalga oshirilishi, uning butunligi, til oʻrganuvchida jarayonga qoʻshilish uchun tayyorgarlik darajasi;
- 2) moslashuvchanlik – oʻrganuvchi tomonidan koʻnikmani yangi kutilmagan vaziyatlarda qoʻllay olish, yangi til materialiga tarqatish uchun malaka;
- 3) chidamlilik – mustahkamlik;
- 4) ongli ravishda bajarish – muayyan xatolik yoki fikrlarni ifodalash jarayonida qiyinchilik paydo boʻlishida oʻrganuvchi tomonidan anglangan nazorat qilish faoliyati.

Oʻz oʻrnida «nutq kompetensiyasi» tushunchasi ham mavjud boʻlib, uni tadqiqotchilar Azimov va Shukin "bilimlar, koʻnikmalar, qobiliyatlar va fazilatlarning birikmasi (shaxsiy va kasbiy jihatdan), shuningdek, yangi bilim va tajribaga ega boʻlish qobiliyati va ularni hayotga tadbiq etishga tayyorlik" sifatida izohlasa, I.A.Zimnya uni — bilimga asoslangan, intellektual va shaxsga asoslangan ijtimoiy va kasbiy hayotiy faoliyat sifatida taʼrif beradi.

Nutq kompetensiyasi – nutq faoliyati turlarini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim va koʻnikmalarining yigʻindisi sifatida tushuniladi, nutqiy kompetentlik esa, ushbu faoliyatni bajarish qobiliyatini aks ettiruvchi omil sifatida qaraladi. Demak, nutq kompetensiyasi – nutqiy amaliyotni bajarish uchun zarur boʻlgan deklarativ va operatsion bilim, koʻnikma va fazilatlarni safarbar qilish malakasi va tayyorgarligi, nutqiy faoliyatga yoʻnaltirilgan harakatlarni amalga oshirish va ushbu faoliyatni egallash tayyorgarligini taʼminlovchi ajralmas komponent boʻlib, unda kasbiy tayyorgarlik va oʻz-oʻzini takomillashtirish pirovard maqsad sifatida tushuniladi.

Xorijiy til taʼlimidagi kompetensiya tushunchasi tor maʼnoda chet tilini oʻqitish jarayonida shakllangan bilim, koʻnikma va malakalar yigʻindisi boʻlsa, keng doirada til bilim, koʻnikma va malakalarni amaliy yoʻnaltirilgan egallash darajasi demakdir. Biz kompetensiyani maʼlum koʻnikma va malakalarni kompleks rivojlantirishni nazarda tutuvchi xorijiy til bilim, koʻnikma va malakalarning umumiy komponenti deb taʼriflaymiz.<sup>15</sup>

<sup>15</sup> Dilnoza Otaxanova. XORIJIY TILNI INTENSIV OʻQITISH. Oʻquv qoʻllanma. 2023, 8-10betlar

Bugungi ta'lim sharoitida, ayniqsa, nolingvistik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilida so'zlashuv ko'nikmalarini oshirish talabalarning kasbiy mahoratini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, veb-resurslardan foydalanish raqamli vositalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash, motivatsiya va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Ushbu metodologiya kommunikativ yondashuv tamoyillariga asoslanadi, ravonlik, talaffuz va ishonchni rivojlantirishga urg'u beradi.<sup>16</sup> Veb-resurslar haqiqiy materiallar, interfaol mashqlar va mustaqil amaliyot uchun imkoniyatlarni taqdim etadi, bu ayniqsa darsda dars o'tish uchun vaqti cheklangan talabalar uchun dolzarbdir.<sup>17</sup>

Metodika aralash ta'limga integratsiyalashgan holda darajani baholash, resurslar tanlash, muntazam amaliyot va taraqqiyotni baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuvlar nutq ko'nikmalarini har semestrda 20-30% ga oshirishi mumkin, ayniqsa talaffuz vositalari va dialog simulyatsiyalaridan foydalanganda.<sup>18</sup> Iqtisodiyot yoki muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun metodologiya professional kontekstlarga, jumladan, biznes nutqi va dolzarb muhokamalarga moslashtirilgan.

### ***Nutqni takomillashtirishning asosiy usullari***

#### **1. Interaktiv platformalar va chatbotlar:**

- AI chatlari va suhbat simulyatsiya platformalaridan foydalanish. Ushbu usulda: Talabalar oddiy mavzulardan boshlab (kichik nutq), bahslarga o'tadi va bunda har kuni 15-20 daqiqa tavsiya etiladi. Misol tariqasida Google Assistant yoki maxsus talaffuzni tuzatish botlarini olsak bo'ladi. Tadqiqotlar bunday vositalarning tashvishni kamaytirish va ishonchni oshirishdagi rolini ta'kidlaydi.

#### **2. Tinglash va gapirishni birlashtirish uchun audio va video resurslar:**

- Podkastlar va videolarni tinglash va keyin ularni qayta aytib berish. Bu usul: Intonatsiya va ritmni yaxshilash uchun ayni muddaodir (ma'ruzachidan keyin real vaqtda takrorlash). Transkriptga ega manbalar xatolarni tahlil qilish imkonini beradi. Bilim darajasi pastroq talabalar uchun samarali usul oddiy YouTube videolaridan boshlash va keyin guruhlarda muhokama qilish.

#### **3. Til almashinuvi va onlayn hamjamiyatlar:**

- Tandem yoki HelloTalk kabi ona tilida (ingliz tili) so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish uchun platformalar. Ushbu usul: Ovozli xabarlarini almashish, gazeta va jurnallarda muxbirlar ishlatadigan nutqiy faoliyat darajasigacha yetishga yordam beradi. Shuningdek, bu haqiqiy dunyo kontekstida ko'nikmalarni rivojlantiradi, til

<sup>16</sup> Чернякова Е. А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЯХ ВУЗА. Таврический научный обозреватель. 2016. 35-38стр

<sup>17</sup> Ю. В. Ахметшина "Практический анализ методики использования Веб-ресурсов на занятиях по английскому языку" МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 1 (98) 2023

<sup>18</sup> Mekuriaw Genanew Astaie "Effects of using educational technology tools to enhance EFL students' speaking performance" Education and information technologies journal 2013



to'sig'ini kamaytiradi. Bu metod universitetlar uchun kasbiy mavzularni muhokama qilish bilan juftlik ishlarini tashkil etish tavsiya etiladi.<sup>19</sup>

4. Gamifikatsiyalangan resurslar va mashqlar:

- Nutqni birlashtirgan o'yinlar va viktorinalarga ega veb-saytlar. Bunda Hotlist (havolalar ro'yxati) yordamida veb-materiallar asosida monologlar tayyorlash. Gamifikatsiya o'quvchilarni raqobatbardosh elementlar orqali rag'batlantiradi. Masalan, nutq amaliyotiga olib keladigan interaktiv grammatik harakatlar uchun WordWall yoki LearningApps.

5. Mavzuga asoslangan nutq uchun haqiqiy veb-resurslar:

- Debatlar uchun yangiliklar, bloglar va forumlar (Reddit, TED Talks). Bunga Kontentga asoslangan taqdimot yoki bahs-munozara topshiriqlari maqbul misol bo'la oladi. Ingliz tili uchun onlayn manbalardan amaliy misollardan foydalaning va bu iboralar va atamalarni tabiiy ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Talabalarning ingliz tilida nutq kompetensiyasini takomillashtirish uchun tavsiya etiladigan bir qator VEB-resurslar vositalari mavjud:

- BBC Learning English ([bbc.co.uk/learningenglish](http://bbc.co.uk/learningenglish)): Barcha darajalar uchun audio va video darslar.
- YouTube: talaffuz va dialog amaliyoti uchun haqiqiy videolar.
- YouGlish va FORVO: Audio media yordamida talaffuzni mashq qilish vositalari.
- EnglishClub.com va ESLlab.com: O'yinlar, viktorinalar va nutq uchun tinglash mashqlari.
- British Council LearnEnglish: Podkastlar va interaktiv mashqlar.
- Vznaniya, WordWall, LearningApps: Interaktiv grammatika va nutq faoliyatini yaratish uchun.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, talabalar kasbiy nutq kompetensiyasiga asoslangan ingliz tili ta'limining asosiy mohiyati ingliz tilidan tashkil qilingan o'quv-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirish sanaladi. Kompetensiyaviy yondashuvda o'qitish maqsadlari talabalar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish, talabalarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallashni nazarda tutish zarur. Yuqorida sanab o'tilgan VEB-resurslar vositalariga asoslangan yondashuv talabalarning ingliz tilida nutq kompetensiyasini takomillashtirishda yordam beradi.

<sup>19</sup> Иванова, Ирина Анатольевна Методика обучения деловой английской речи студентов экономических факультетов с использованием электронных ресурсов Автореферат 2009.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 5117-sonli qarori.
2. Dilnoza Otaxanova. XORIJIY TILNI INTENSIV O'QITISH. O'quv qo'llanma. 2023,
3. Чернякова Е. А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ-РЕСУРСОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА НЕЯЗЫКОВЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЯХ ВУЗА. Таврический научный обозреватель. 2016.
4. Ю. В. Ахметшина "Практический анализ методики использования Веб-ресурсов на занятиях по английскому языку" МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 1 (98) 2023
5. Mekuriaw Genanew Astaie "Effects of using educational technology tools to enhance EFL students' speaking performance" Education and information technologies journal 2013
6. Иванова, Ирина Анатольевна Методика обучения деловой английской речи студентов экономических факультетов с использованием электронных ресурсов Автореферат 2009.